

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası

DIPLOM LOYIHASI BO`YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Diplom loyihasining mavzusi: Siqilgan gazlar uchun gaz balonlarini tayyorlashda ishlatiladigan polimer materiallarning fizik-mexanik xossalarini o`rganish.

Bitiruvchi: 5310600 - “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi” yo`nalishi 4-kurs 104-13-guruh talabasi:

	_____ U Maribjonov
Fakultet dekani:	_____ M.Qo`chqarov
Kafedra mudiri:	_____ N.Ikromov
Diplom loyihasi rahbari:	_____ Sh.To`rayev
Maslahatchilar:	_____ Z.Teshaboyeva
	_____ A.Rahimov
	_____ A.Sarimsaqov

Andijon – 2017

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“MASHINASOZLIK” fakulteti
“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası
DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO`YICHA
T O P S H I R I Q

Maribjonov Ulug`bek

1. Diplom loyihasining mavzusi: Siqilgan gazlar uchun gaz balonlarini tayyorlashda ishlatiladigan polimer materiallarning fizik-mexanik xossalarini o`rganish.

Institut bo`yicha 2016 yil “25” dekabrda 224-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma`lumotlar:

Mavzu bo`yicha boshlang`ich ma`lumotlar, statistik kuzatishlar, soha bo`yicha qonun va qarorlarni bajarish bo`yicha

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma`lumotlar:

1) Kirish. Bu qismda talaba soha bo`yicha Respublikamizda erishayotgan yutuqlari, davlat dasturlari va ularni bajarilayotganligi va avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari to`g`risida ma`lumotlar beradi. Bundan tashqari mavzuni hozirgi kundagi dolzarbligi va uning kelesidagi samarasi yoritiladi.

2) Asosiy qism. Mavzu bo`yicha bajarilgan diplom loyihasi mavzusining tahlili va adabiyotlar sharhi beriladi. Mavzuning asosiy mazmuni yoritiladi va zarur ma`lumotlar keltiriladi.

3) Konstruktiv (Texnologik) qism. Mavzu bo`yicha konstruktiv (texnologik) yechimlar keltiriladi.

4) Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya qismi. Mavzu bo`yicha xavfsizlikni ta`minlovchi asosiy shartlar, mashina va mexanizmlarning xavfli zonalari, muhofazalovchi va saqlovchi to`siq vositalari va ekologik talablar kabi ma`lumotlar keltiriladi.

5) Iqtisodiy qism. Mavzu bo`yicha qilinayotgan loyiha yoki konstruksiya (texnologiya)ning iqtisodiy yechimlari keltiriladi.

6) Xulosa va takliflar. Mavzu yuzasidan yuqorida qilingan ishlar bo`yicha umumiy xulosa va takliflar keltiriladi.

**7) Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.** Mavzuni bajarish davomida foydalanilgan adabiyotlar va internetdagi veb saytlarning ro`yhati keltiriladi.

8) Ilova. Mavzu bo`yicha maxsus jadvallar, diplom loyihasi oldi amaliyoti davrida to`plagan rasmlar va internetdan olingan ma`lumotlar ilova qilinadi.

4. Diplom loyihasining chizmalari ro'yhati (A3 formatda 6 list vatman):

a) Asosiy qism chizmalari (jadval, grafik va boshqalar):

1-chizma. Kompozitsion polimer materiallarning fizik-mexanik xossalari
yillik asosiytexnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

2-chizma. Yengil avtomobillarning suvultirilgan gaz bilan taminlash tizimi

b) Konstruktiv qism chizmalari:

3-chizma. Yuqori bosimli gaz ballon va uning hisobiy chizmasi

4-chizma. Sinchlangan kompozitsion polimer materiallardan olingan
gaz ballonlarni sinovchi qurilmaning printsipl sxemasi

c) Tashkiliy qism chizmalari (reja, struktura va boshqalar):

5-chizma. Avtomobillar uchun sinchlangan kompozitsion polimer
materialidan olingan yuqori bosimli gaz ballon konstruktsiyasi
va o'lchamlari

d) Iqtisodiy qism bo'yicha jadvallar:

6-chizma. Propan va metan gaz balonlari uchun ishlatilishi mumkin
bo'lgan materiallarning mustahkamlik tavsiflari

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyihasining qismlari	Boshla-nish muddati	Tugalla-nish muddati	Imzo	Maslahatchi-ning familiyasi
1	Kirish	11.01.2017	31.01.2017		Sh.To'rayev
2	Asosiy qismi	01.02.2017	28.02.2017		Sh.To'rayev
3	Konstruktiv (texnologik) qismi	01.03.2017	31.03.2017		Sh.To'rayev
4	Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya qismi	01.04.2017	30.04.2017		A.Rahimov
5	Iqtisodiy qismi	01.05.2017	20.05.2017		Z.Teshaboyeva
6	Xulosa va takliflar	22.05.2017	01.06.2017		Sh.To'rayev
7	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	01.06.2017	03.05.2017		Sh.To'rayev

6. Topshiriq berilgan sana: 11.01.2017 yil

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi: 06.06.2017 yil

Diplom loyihasi rahbari: _____ Sh.To'rayev

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi: _____ U Maribjonov

Kafedra mudiri: _____ t.f.n. N.A. Ikromov

MUNDARIJA

1. KIRISH	5-9
2. ASOSIY QISM	10-31
3. KONSTRUKTIV QISM	32-36
4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI QISMI	37-44
5. IQTISODIY QISM	45-55
6. XULOSA VA TAKLIFLAR	56-57
7. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI	58-59
8. ILOVA	60-65

1.KIRISH

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi mahruzas

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko`lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglik muhitini taminlash uchun muhim poydevor bo`ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro`yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda mahmuriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o`ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori surhatlar bilan o`sishini, inflyatsiyani prognoz ko`rsatkichlari darajasida saqlab qolishni tahminladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o`tgan taraqqiyot yo`lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konhyunkturasi keskin o`zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal surhatlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro`yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o`zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e`tiborga loyiq.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida

Hayotning o'zi va o'tgan yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o'zgartirishni taminlash dagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori surhatlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini taminlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan 12 ta ijtimoiy va infratuzilma dasturini amalda bajarish. Shundan 8 ta dastur tasdiqlangan. Yaqin vaqt ichida transport va savdo xizmatini yaxshilash, avtomobilg' yo'llarini va ichimlik suv tahminoti tizimini rekonstruktsiya qilish bo'yicha hujjatlar to'plamini qayta ishlab chiqib, taqdim etish

Xozirgi kunda mashinasozlik, avtomobilsozlik va boshqa korxonalarining yanada takomillashtirish, ishlab chiqarilaotgan avtomobillarni sifatini yaxshilash, mashinasozlik tarmog'ini jadal rivojlantirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ushbu bilan aholini turmush darajasini ko'tarish dolzarb vazifasidir.

Respublika iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarning natijalari ko'p jihatdan malakali mutaxassis kadrlarga, ularning ilmiy solohiyatiga ham bog'liqdir. Shu sababli zamon talabiga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash shu kunning dolzarb masalasidir. Tejamkorlik va zamonaviylik har qanday soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, bugungi kunda avtomobilsozlik bilan shug'ullanayotgan kompaniya yoki korxona borki, ularning barchasi ushbu talablarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga harakat qilmoqda. Buning o'ziga xos sabablari bor, al-batta. Bu, avvalo, avtotransport vositalariga ehtiyoj ortib borayotgani bilan izohlansa, ikkinchidan, korxonalarning raqobat maydonida o'z o'rnini mustahkamlashga bulgan intilishi

natijasidir. Ammo keyingi yillarda avtotransport vositalarining tabiatga, aniqrog'i, ular yonilg'isidan chiqayotgan zararli moddalarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Negaki, yirik shaharlarda avtotransport vositalarining ko'payishi nafaqat atrof-muhit musaffoligini saqlashda, balki aholining sog'lom turmush kechirishida ham qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois ko'plab davlatlarda avtotransport vositalarini an'anaviy yonilg'idan muqobilga o'tkazish ishlariga alohida etibor qaratilayotir. Jumladan, xozir Parij shaxri rahbariyati barcha jamoat transport vositalarini metan gaziga o'tkazgan. Germaniyada esa avtomobillarni gaz bilan ta'minlaydigan 800 dan ziyod shoxobcha mavjud bo'lib, kelgusida ularning sonini yanada ko'paytirish choralari ko'rilyotir. Muqobil energiya tarmog'ining kengayishi atmosferani keskin yaxshilashini birgina metan gazi bilan ishlaydigan avtomashinadan havoga 5 barobargacha kam zararli gaz chiqishi yaqqol isbotlamoqda. Aytish joizki, bu borada yurtimizda ham muayyan ishlar olib borilmoqda. Natijada O'zbekiston joriy yilda avtotransport vositalarini muqobil yonilg'iga o'tkazish borasida jahon mamlakatlari orasida 14-o'rindan yettinchi pog'onaga ko'tarildi. Xo'sh, bunday ko'rsatkichga qaysi omillar tufayli erishildi?

Ma'lumki, hozir O'zbekiston avtomobil ishlab chiqaruvchi sanoqli davlatlardan biri hisoblanadi. Bugun yurtimiz ko'chalarini to'ldirib yurgan yengil va yo'lovchi tashishga mo'ljallangan ishonchli, qulay, xavfsiz avtotransport vositalari aholi uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilayotganini ko'rib, ko'nglimiz quvonchga to'lsa, ularga xorijda ham talab ortib borayotganidan faxrlanamiz. Sohaga zamonaviy texnologiyalarning izchil tatbiq etilyotgani, modernizatsiyalash ishlarining jadallashgani jahon standartlariga mos avtotransport vositalari ishlab chiqarish imkonini yaratayotir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2007 yil 10 fevraldagi "Avtomobillarni gaz bilan to'ldirish kompressor stantsiyalari va avtomobillarga gaz quyish stantsiyalari shoxobchalarini rivojlantirish hamda avtotransport vositalarini suyultirilgan va siqilgan gazga bosqichma-bosqich o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori asosida olib borilyotgan ishlar, ay-niqsa, o'z samarasini bermoqda. Bu borada O'zbekiston

Ekologik harakati, O'zbekiston Savdosanoat palatasi hamda poytaxtimizdagi "Gazomir - PRO" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan avtotransport vositalarini ekologik toza muqobil yonilg'i turlariga o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni alohi-da ta'kidlab o'tish joiz. Gap shundaki, hamkor tashkilotlar atrof-muhit musaffoligini ta'minlash maqsadida yurtimizda ishlab chiqarilgan avtomobillarni metan gaziga o'tkazish tashabbusini ilgari surib, ayni paytda ushbu loyi hani nihoyasiga yetkazmoqdalar [5-7].

— Loyihani bajarishda Frantsiya, Polsha, Rossiya, Ukraina, Italiya singari davlatlarning tajribasini o'rganganimiz qo'l keldi, — deydi "Gazomir - PRO" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari o'rinbosari Ravshan Umarov. — Bu jarayonda yurtimizda ishlab chiqarilayotgan "Epica", "Spark", "Matiz" yengil mashinalari, "Isuzu" rusumidagi avtobus va yuk tashuvchi avtomobillar, shuningdek, qishloq, xo'jaligi texnikalarini sinovdan o'tkazildi. Darhaqiqat, yurtimiz avtomobilsozligida joriy etilayotgan mazkur loyi ha tabiiy boyliklardan unumli foydalanishni ta'minlash barobarida, ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Dunyo bo'yicha avtotransport vositalaridan an'anaviy yonilg'idan havoga zaharli gaz chiqish miqdori uch foizgacha etib belgilangan. Lekin shunga qaramasdan, hozirgi paytda atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarning qariyb 70 foizi an'anaviy yonilg'ida ishlaydigan transport vositalari xissasiga to'g'ri kelmoqda. Agar avtotransport vositasi muqobil yonilg'iga moslashtirilsa, undan atmosferaga zararli gaz chiqishi deyarli yo'qoladi.

Bu borada O'zbekiston Ekologik harakati, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamda poytaxtimizdagi "Gazomir - PRO" mas'uliyati cheklangan jamiyatining loyihasi mutaxassislar tomonidan istiqbolli deb topilmoqda. Metan gaziga moslashtirilgan "Matiz", "Spark", "Nexia", hamda "Isuzu" rusumidagi avtobus va yuk tashuvchi avtotransport vositalarining so'ngi sinov jarayonida ishtirok etgan tegishli vazirlik va idoralar vakillari shunday xulosaga keldilar. Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holdi men ushbu bitiruv malakaviy ishimni "Avtomobil dvigatelidagi gaz bilan ta'minlash tizimining rivojlanish istiqbollari yengil avtomobillar misolida o'ranish" mavzusida isholib borishni o'z oldimga

maqsad qilib qo'ydim. Ushbu malakaviy bitiruv ishi Siqilgan gazlar uchun gaz balonlarini tayyorlashda ishlatiladigan polimer materiallarning fizik-mexanik xossalarini o'rganish va Avtomobillarda ishlatiladigan gaz ballonlarni mustahkamligi tahminlangan holda og'irligini kamaytirish hozargi kunda dolzarb hisoblanadi.

2. ASOSIY QISM

2.1. Adabiyotlar sharxi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida quyidagi ilmiy – texnika adabiyotlaridan foydalanildi va ushbu adabiyotlar sharxi quyida keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10 fevral 2007 yildagi 30-sonli "Avtomobillarni gaz bilan to'ldirish kompressor stantsiyalari va avtomobillarga gaz quyish stantsiyalari shaxobchalarini rivojlantirish hamda avtotransport vositalarini suyultirilgan va siqilgan gazga bosqichma-bosqich o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori. Bu qarorda 2007-2012 yillar oralig'ida respublikamizdagi jismoniy va yuridik shaxslarning avtotransport vositalarini suyultirilgan va siqilgan gazga o'tkazish bo'yicha hamda suyultirilgan va siqilgan gaz bilan ta'minlash shaxobchalarini qurish bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilangan [5].

Q.M.Sidiqnazarov, U.V.Ahmedov "O'zbekiston avtotransporti o'tmishda va istiqloq yillarida" ushbu kitobda avtotransport va ekologiya, avtotransportni paydo bo'lishi, mustaqillik yillarigacha O'zbekiston avtotransporti kabi ma'lumotlar keltirilgan [6].

M.O.Qodirxonov "Avtomobillarning ish jarayoni va hisoblash asoslari". Mazkur darslik avtomobilning transmissiyasi, yurish va boshqarish qismi agregatlarining bir-biriga nisbatan joylashishi, ularda hosil bo'luvchi yuklamalar va hisoblash rejimlari, ish jarayoni, qo'yilgan talablar, ularning konstruksiyasa qondirilishi va uni baholash, tasnifi, hisoblash elementlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan [7].

O.I.Manusadjyans, F.V.Smal. "Avtomobilnie ekspluatatsionnie materialy"darsligida avtotransport korxonalarida yuk va passajir avtomobillarini ekspluatatsiya qilish jarayonlari va avtomobillarni ekspluatatsiya qilishda yonilg'ich moylash materiallarini tejash usullari kabi ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari dizel dvigatelli avtomobilini gaz yonilg'isiga moslashtirish bo'yicha konstruksiya taklif etilgan [8].

G'.N.Maxmudov "Avtomobil elektr va elektron jihozlari" darsligida avtomobillarning elektr va elektron jihozlarining tuzilishi, ishlash printsiplari, 12 nazariyasining asoslari va tavsifnomalari keltirilgan. Ayniqsa hozirgi zamon avtomobillariga o'rnatilayotgan yangi elektr jihozlar: xizmat ko'rsatilmaydigan akkumulyatorlar, kontaksiz generatorlar, ichki reduktorli statorlar, raqamli va mikroprosessorli o't oldirish sistemalari, nazorat-o'lchov va yoritish sistemalaridagi elektron jihozlarga alohida e'tibor berilgan [9].

G'.N.Maxmudov, O.Hamrag'ulov "Avtomobil elektr va elektron jihozlari" 1-qismi o'quv qo'llanmada laboratoriya ishlarini o'tkazishda qo'llaniladigan tekshiruv-sinov qurilmalari, zaruriy o'lchov asboblari haqida qisqacha ma'lumot hamda ishlarni o'tkazish va hisobot tayyorlangan tartibda berilgan. har bir ish yuzasidan o'z-o'zini tekshiruv savollari keltirilgan[10]

G'.N.Maxmudov, O.Hamrag'ulov "Avtomobil elektr va elektron jihozlari" o'quv qo'llanmaning 2-qismida nazorat-o'lchov asboblari va diagnostika tizimi, yoritish va habar berish tizimi, qulaylik yaratuvchi asboblarning tizimi, dvigatel va transmissiyaning avtomatik boshqarish tizimlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan [11].

X. Mamatov "Avtomobillar" 1-qismida avtomobil mexanizmi va tarmoqlarining vazifasi, umumiy tuzilishi, ishlash uslubi hamda konstruktiv xususiyatlari bayon etilgan. Jumladan dizel dvigatelinin ta'minlash tizimi va gaz ballonli avtomobillarning ta'minlash tizimi bo'yicha darslikda keng yoritib berilgan [12].

E.Fayzullaev va boshqalar "Transport vositasining tuzilishi va nazariyasi" darsligida zamonaviy avtomobillarning konstruktiv yangiliklarini va mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan avtomobillari konstruksiyasi misolida avtomobilning asosiy qismlari, mexanizm va sistemalarining vazifasi, tuzilishi, ishlash printsiplari, turlari hamda konstruktiv xususiyatlari batafsil bayon etilgan. Dizelli va gaz ballonli dvigatellarning ta'minlash tizimi ham keltirilgan [13].

E.A.Asatov, A.A.Tojiboev. "Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari" o'quv qo'llanmasida transport vositalarining texnik holati, ishlash qobiliyati, qism va birikmalarning har xil omillar ta'sirida eskirishi, eyilishi haqida tushuncha 13

berilgan bo'lib, ularning ishonchliligi bayon etilgan hamda ekspluatatsiya jarayonida buyumlarni ishonchlikka sinash va ishonchlik xususiyatlari ko'rsatkichlarini qo'llash usullari yoritilgan. Shuningdek, transport vositalari ishonchliligini oshirish yo'lida ayrim konstruksion va ekspluatatsion choralar bo'yicha tavsiyalar berilgan. Diagnostik tashqi belgilar, parametrlar va me'yorlar, ob'ektning texnik holati ta'riflangan. Diagnostikaning umumiy jarayoni va texnik diagnostika vositalariga qo'yiladigan talabalar, transport vositalarini diagnostikalash usullari va diagnostikalash vositalari tasnifi hamda diagnostika samaradorligini baholash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan [14].

O.Hamraqulov, Sh.Magdiev "Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi" darsligida amaliy faoliyatdagi avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining holati. Ya'ni avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash texnologiyasi, hamda avtotransport korxonalarida ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologik jihozlar, harakatdagi tarkibga moddiy-texnik ta'minotni tashkil qilish va resurslarni tejash usullari, avtomobil transportini turli ekstremal tabiiy-iqlim va yo'l sharoitlaridagi, asosiy ishlab chiqarish bazalaridan ajralgan holdagi, hamda maxsuslashtirilgan harakatdagi tarkibning ekspluatatsiyasi, avtomobil transportining atrof-muhitga zararli ta'sirining yo'nalishlari va ularni kamaytirish yo'llari keltirilgan [15].

G'.Yo.Yormatov, O.R.Yuldashev, A.L.Hamrayev "Hayot faoliyati xavfsizligi" darsligida ob-havo sharoiti va inson faoliyati, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, sanoat korxonalarida shamollatish qurilmalariga qo'yiladigan asosiy talablar, changlangan havoni tozalash qurilmalari, shovqindan saqlanish, texnika vositalarida xavf-xatarlar va ulardan muhofazalanish, elektr xavfsizligi, mehnatni muxofaza qilish qonunlari va tashkiliy asoslari va yong 'inni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlari to'g'risida kerakli ma'lumotlar berilgan [16].

Yu.Qirg'izboyev, Z.Inog'omova, T.Rixsiboyev "Texnik chizmachilik kursi" darsligida chizmalar haqida umumiy ma'lumotlar, chiziq turlari, shriftlarning yozilish tartiboti, masshtablar, chizmalarga qirqim berish usullari, burchak 14 shtamplarining ko'rinishi, chizmalarga o'lchamlar qo'yish usullari va shu kabi ma'lumotlar berilgan [17].

K.X.Maxkamov, T.O. Almataev. Mashinalar puxtaligi. Andijon, Xayot, 2002 yil. Avtomobil va qishloq xo'jaligi mashinalari usun ishonchlilik, mashinalarni remont qilish asoslari, detallarni remont qilish texnologiyasi haqida malumotlar berilgan [18].

М. Е. Rozenberg “Полимеры на основе винилацетата” kitobida polimerlarning umumiy tuzilishi xossalari keltirilgan.[19]

Азизов З., Каримов Ю. «ЎзДЭУавто» автомобилларининг газ баллон курулмасини ўрнатиш шартлари шартлари келтирилган . [20]

Shunindek bir qator standartlardan va internet saytlari orqali kerakli ilmiy texnik ma'lumotlar oldim [21-25].

2.2. Yuqori bosimli gaz ballonlarida ishlatiladigan kompozitsion polimer materiallar taxlili

XXI asr avtomobilsozligi, mashinasozligi yuqori mustaxkamlikdagi kompozitsion polimer materiallarning yaratilishi bilan uzviy bog`liq holda taraqqiy etib bormoqda. Talab etilgan mustaxkamlikni tahminlay oladigan mustaxkam material yaratish borasida dunyoning ko`pgina mamlakatlarida ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bu borada Rossiya, Yaponiya, Ukraina, AQSHlarida tolalar bilan sinchlangan kompozitsion polimer materiallar yaratilmoqda va ularni nafaqat avtomobilsozlik, mashinasozlik sohalarida balki kosmonavtika, samolyotsozlik, kemasozlik sohalarida xam keng qo`llanilmoqda. Polimer kompozit materiallar yaxshi fizik–mexanik xususiyatga ega va solishtirma og`irligi metall kompozitlariga nisbatan bir necha marta kamdir. Jumladan, polimer kompozitsion materillarining solishtirma og`irligi 0,55 kg/l bo`lgani xolda, metalkompozitlarining solishtirma og`irligi 1,25-1,87 kg/l ni tashkil qiladi. Bunday polimer kompozit material(PKM)lardan talab etilgan kuchlanishga bardosh beradigan o`ta mustaxkam va yengil material olish imkoniyatlari mavjuddir. Tolalar bilan sinchlangan PKMlari mustaxkamligining yuqoriligi va bunday materiallardan yuqori bosimli gazballon uchun kompozit material olish imkoniyatlari mavjud.


1-jadvalda bir necha turdagi PKMlarning fizik-mexanik xususiyatlari keltirilgan [1]. Jadvalda keltirilgan materiallar tolalar bilan sinchlangan polimer kompozit materiallardir.

Sinchlangan polimer kompozitlarining fizik-mexanik xususiyatlari 1-jadval

Xususiyatlar	Stekloplastik	Ugleplastik	Organoplastik
Tola miqdori, %	65-70	60-70	65-70
Zichlik, kg/m ³	2000	1550	1400
Mustaxkamlik:			
Siljishga, Mpa	2500-2700	1800-3500	3500-4000
Siqilishga, MPa	2000-2500	1200-1800	350-400

1-jadvaldan ko`rinib turibdiki, mashinasozlikda keng qo`llanilayotgan polimer materiallarining mustahkamligi quyma po`latlarnikiga nisbatan 8-10 marta ko`pdir. Bunday yuqori mustahkamlikdagi kompozitsion polimer materiallardan avtomobillarni suyultirilgan va siqilgan gaz hamda benzin yonilg`ilarida ishlashini taminlash maqsadida termoplas va reaktoplas polimer bog`lovchilarni mahsus tolalar bilan bo`ylama va ko`ndalang sinchlov usulida mustahkamlab, istalgan shakl va hajmda gaz ballon olish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi.

Avtomobillarni qo`sh yonilg`i bilan taminlash uni yanada qulay va samarali qilib nafaqat mamlakatimizda, balki jahon bozorida ham xaridorgirligini oshirishga olib keladi. Tolalar bilan sinchlash texnologiyasi murakkab konstruksiyali sinchlovchi qurilma va murakkab jarayondan iborat bo`lganligi bois bunday texnologiyani ishlab chiqish katta xajmli ilmiy yo`nalishdagi vazifa va murakkab jarayonni talab etadi. SHuning uchun texnologiyani soddalashtirish bilan bir vaqtda mustaxkam kompozit material olish texnologiyasini ishlab chiqishga aloxida ahamiyat berildi.



1-rasm. Kompozit materiallarni tolalar bilan sinchlash shakli.

a- 60° da sinchlash: b- 45° da sinchlash.

Mustaxkam PKMlarni olish texnologiyasi bo`yicha tolalarni sinchlash shakl va usullari muxim ahamiyat kasb etadi. Chunki kompozit materiallarning

mustaxkamligini oshiruvchi ososiy omil sinchlash shakl va usuliga bog'liq bo'lib material mustaxkamligini 20-30 % gacha oshirish imkoniyatini yaratadi.

Eng yaxshi mustaxkamlikni tahminlovchi sinchlash shakli 1-rasmda keltirilganidek qanchalik tolalarni bir-biriga nisbatan kichik burchakda sinchlanganda mustaxkamlik shunchalik yuqori bo'ladi.

2.3. Maxalliy xom ashyolar asosida yuqori bosimli gaz ballonlar olish istiqbollari


Odatda kompozitsion materiallar plastik asos(matritsa) bilan to'ldirgichdan: kukun, tola yoki istalgan boshka shakldagi zarrachalardan tarkib topadi. Qo'shimchalar kompozitsiyaning mustahkamligi va qattiqligini, bog'lovchi materiallar esa tashkil etuvchi komponentlar orasidagi adgeziyani, kuch ta'sir etganda puxta va plastik bo'lishini tahminlaydi. SHu munosabat bilan furan birikmalarini epoksid (ED-16,ED-20) polimerlari bilan modifikatsiyalab, maxalliy mineral to'ldiruvchilardan keng foydalangan xolda, shisha va grafit tolalari bilan maxsus usulda sinchlangan, 25-30 MPa kuchlanishga bardosh beradigan gaz ballon uchun kompozitsion polimier materiallar olish istiqbollari mavjud.

Sinchlangan yoki dispers fazalar bilan to'ldirilgan plastiklar ajoyib xossalarga ega bo'ladi: kimyoviy barqarorligi bilan birga nisbiy mustahkamligi yuqori, issiq o'tkazuvchanligi kam va detalg' hamda konstruktsiyalar tayyorlashda texnologik jixatlari qulay bo'ladi. Mahsus to'ldirgichlar qo'shilgan sinchlangan plastiklar kosmik texnika obhektlarini issiqdan himoya qiluvchi sifatida, shuningdek bo'ylama mustahkamligi yuqori bo'lgan konstruktsiyalarda ishlatiladi. Polimer matritsali kompozit materiallarni tabiiy va sintetik tolalar bilan maxsus shaklda sinchlab 25-30 MPa kuchlanishga bardosh bera oladigan yuqori mustahkam konstruktsion materiallar olish texnologiyasini yaratish mamlakatimiz mashinasozligi taraqqiyotida muxim ahamiyatga ega bo'lib, juda katta imkon va iqtisodiy samaradorlikka olib keladi. Bu mustaqil mamlakatimizning porloq kelajagi uchun ko'plab miqdorda sarflanayotgan valyutani tejab qolishga va qo'shimcha iqtisodiy foyda keltirishiga, shu bilan birga avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishiga o'z xissasini qo'shadi.

2.4. Yuqori bosimli gaz ballonlarni olish uchun ishlatiladigan kompozitsion polimer materiallarning fizik-mexanik xossalarini tadqiqotlash.

Kompozitsiyani ishchi haroratining darajasi polimer bog'lovchining tabiatiga bog'liq, uning fizik-mexanik xossalari harorat ta'sirida o'zgaradi. Jumladan, ED-20+PEPA+DBF(EDPD) polimer bog'lovchisini qotishida tebranishning logarifmik dekrementi va dinamik elastiklik moduliga haroratning ta'siri bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, haroratning oshib borishi bilan dinamik elastiklik moduli polimerning qotish haroratigacha ($T_s=393K$) chiziqli kamayib borishi kuzatildi. Polimerning elastiklik moduli haroratga bog'liq bo'lib, shishalanish harorati atrofida uning xususiyati o'zgarishi va dinamik elastiklik moduli keskin kamayib borishi kuzatildi. Polimer qizdirilganda shishalanish haroratining eng yuqori chegarasida elastiklik moduli o'zgaradi va polimer yuqori elastik holatiga o'tib dinamik elastiklik moduli eng yuqori qiymatga erishadi. Termik ishlov berish vaqti va haroratning oshib borishi ta'sirida qotish darajasining oshib borishi bilan polimer kompozitsiyalarining dempfitr hossalari kamayib borganligini, shuningdek elastiklik dinamik modulining birinchi (E) va ikkinchi (G) turlarining oshib borganligi aniqlandi. Bu shubhasiz, fazoviy to'rtburchikning zichligi oshib borishi natijasida, polimer zanjiridagi tikilish darajasini oshishi va molekulalararo bo'g'in va zanjir egiluvchanligi kamayishiga bog'liqdir. Polimer kompozitsiyasi qotish darajasining oshib borishi bilan tebranishning logarifmik dekrementi kamayib borganligini, shuningdek elastiklik xossasini beruvchi tebranishga bardoshlilik($d \times E$) oshib borishi aniqlandi. Qisqa nitron tola va uning kombinatsiyasi miqdorini epoksid kompozitsiyasining uzilish mustahkamligiga bog'liqligi **3-rasmda** keltirilgan.




3-rasm. Epoksid kompozitsiyasining uzilish mustahkamligi qisqa nitron tola va ularning kombinatsiyasi miqdoriga bog`liqligi

1 – qisqa nitron tola+ mexanik faollashgan qum, 2 - qisqa nitron tola+ vollastonit, 3 - qisqa nitron tola+mexanik faollashgan qum+ vollastonit Qisqa nitron tola va mineral to`ldiruvchilar bilan sinchlangan kompozitsion polimer materiallarning uzilish mustahkamligining oshishini **2.3-rasmdan ko`rish mumkin**. Qisqa($l_a=1-3$ mm) nitron tola va minerallar bilan kombinatsiyalashgan holda to`ldirib sinchlangan kompozitsion polimer materiallarning uzilish mustahkamligining(qisqa nitron tola miqdori 20 mas.q. da) eng yuqori qiymati 138 MPa ni tashkil etdi. Qisqa nitron tola va uning kombinatsiyasi miqdori oshib borishi bilan kompozitsion polimer materiallarning uzilish mustahkamligi kamayib boradi. SHunday qilib, qisqa nitron tola va uning mexanik faollashgan qum va vollastonit bilan kombinatsiyasi epoksid kompozitsiyasi xossalariga ta`siri o`rganilgan tadqiqotlash natijalari asosida qisqa nitron tolaning eng maqbul miqdori 20 mas.q.da tadqiqotlarning keyingi bosqichi uchun tanlab olindi. Har xil miqdorda uzluksiz nitron tolalar bilan sinchlangan kompozitsion polimer materiallarning dinamik xossalarini o`rganish maqsadida 348,408K harorat oralig`ida tebranish to`lqinlarining so`nishi bo`yicha tadqiqotlar olib borildi. **4-rasmda** uzluksiz nitron tolalar bilan sinchlangan kompozitsion polimer materiallarning dinamik xossalarini


o`rganish natijalari keltirilgan. ED-20 asosidagi kompozitsiyada nitron tola miqdorining oshib borishi bilan tebranishning logarifmik dekrementi 383,393K harorat oralig`ida eng yuqori qiymatga ega bo`lib, harorat ortib borishi bilan uning qiymati kamayib borganligini 4-rasmda ko`rishimiz mumkin. Tebranishning logarifmik dekrementi 393K haroratda kompozitsiya tarkibida nitron tola miqdori 30, 40 va 50 mas.q. da eng yuqori qiymatga, yahni 8,7, 12,8 va 13,9% ni tashkil etdi. SHuningdek nitron tola miqdorining oshib borishi bilan kompozitsiyaning elastiklik dinamik xossasi kamayib borishi aniqlandi. Sinchlangan kompozitsion polimer materiallarni (KPM) dinamik xossalari bo`yicha olingan nati-jalarining tahlili shuni ko`rsatdiki, uzluksiz nitron tolasi bilan to`ldirilgan materiallarning dinamik va termoelastik xossalari o`rganilib, sinchlangan KPMLar yaratish imko-niyatlari aniqlandi. Kompozitsion materiallarning egilishdagi mustahkamlik chegarasi, uzilish mustahkamligi va elastiklik moduli uzluksiz nitron tola miqdoriga bog`liqligi 5-rasmda keltirilgan. [19]

5-rasmdan ko`rinib turibdiki, kompozitsiya tarkibida uzluksiz nitron tola miqdori oshib borishi bilan kompozitsion materiallarning egilishdagi mustahkamlik chegarasi, uzilish mustahkamligi va elastiklik moduli oshib borar ekan.



4-rasm. Nitron tola miqdorining sinchlangan KPMLar

tebranishining logarifmik dekrementi va dinamik elastiklik modulini haroratga bog`liqligi Kompozitsiyada nitron tolaning miqdori, mas.q.: 1,4-30; 2, 5-40; 3, 6-50. 1,2,3 – tebranishning logarifmik dekrementi, 4,5,6 - dinamik elastiklik moduli



5- rasm. Sinchlangan kompozitsion materiallarning mustahkamlik xossalarini uzluksiz nitron tola miqdoriga bog`liqligi

1 – egilishdagi mustahkamlik chegarasi σ_i , 2 – uzilish mustahkamligi σ_r ,
3 – elastiklik moduli Y_e

Sinchlangan kompozitsion polimer materiallar yaratish uchun uzluksiz nitron tolaning eng maqbul miqdorini 50 mas.q.da qabul qildik. Uzluksiz nitron tola miqdorining oshib borishi kompozitsiya tannarxini oshib ketishiga olib keladi. SHu boisdan ham tadqiqotlarning keyingi bosqichlari uchun uzluksiz nitron tolaning miqdori aynan 50 mas.q.da olinishi tavsiya etildi.

2.5. Maxalliy xom ashyolar asosida yuqori bosimli gaz ballonlar uchun kompozitsion polimer materiallar olish uchun tarkib bo'yicha tavsiya ishlab chiqish

Olingan tadqiqot natijalarini tahlil qilib, qisqa va uzluksiz nitron tolalari va uning polimer bog'lovchilar hamda kukunsimon ingredientlar bilan kombinatsiyasi asosida bir qator tarkiblar ishlab chiqildi (2-3-jadvallar).

2-jadval

Qisqa nitron tola bilan sinchlangan epoksid polimerkompozitsiyasi uchun ishlab chiqilgan tarkiblar

Sinchlangan epoksid polimer kompozitsiyasi

Bog'lovchi va Ingredientlar	Sinchlangan epoksid polimer kompozitsiyasi				
	EDPK-1	EDPK-2	EDPK-3	EDPK-4	EDPK-5
	Bog'lovchi va ingredientlar miqdori, mas.q.				
ED-20	100	100	100	100	100
PEPA	10	10	10	10	10
DBF	15	15	15	15	15
Nitron tola	20	18	22	20	15
Mexanik faollashgan: qum	-	5	-	2	3
vollastonit	-	-	5	3	2

Ishlab chiqilgan tarkiblar asosida sinchlangan epoksid kompozitsion polimer materiallarning fizik-mexanik va dinamik xossalarini aniqlash maqsadida, ularning sinov namunalari tayyorlandi. Olingan eksperimental tadqiqot natijalari 4 va 5-jadvallarda keltirilgan.[]

3-jadval

Uzluksiz nitron tola bilan sinchlangan epoksid polimer kompozitsiyasi uchun ishlab chiqilgan tarkiblar

Bog`lovchi va Ingredientlar	Sinchlangan epoksid polimer kompozitsiyasi				
	EDPK-1	EDPK-2	EDPK-3	EDPK-4	EDPK-5
	Bog`lovchi va ingredientlar miqdori, mas.q.				
ED-20	100	100	100	100	100
PEPA	10	10	10	10	10
DBF	15	15	15	15	15
Nitron tola	50	45	40	45	45
Mexanik faollashgan: qum vollastonit	- -	5 -	- 5	2 3	3 2

Keltirilgan 4-javdaldan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oz miqdorda qisqa nitron tolasi bilan sinchlangan va mexanik faollashgan minerallar bilan modifikatsiyalangan epoksid bog`lovchilarining mustahkamligi 2-3 marta oshar ekan. Bunday mustahkamlikdagi materiallardan 10-12 MPa o`rtacha bosimli gaz ballonlar olish mumkin.

Jumladan propan gaz ballonlari, kompressorlar, olov o`chirgichlar, kislorod ballonlari va ko`plab yuqori bosim ostida ishlovchi gaz ballonlarda qo`llashni tavsiya etilmoqda. Keltirilgan 5-jadaldan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uzluksiz nitron tolasi bilan sinchlangan va mexanik faollashgan minerallar bilan modifikatsiyalangan kompozitsion materiallar mustahkamligi epoksid bog`lovchilari mustahkamligini 10-12 martaga oshirish imkoniyatini yaratdi. Bunday mustahkamlikdagi sinchlangan kompozitsion polimer materiallari 20-30 MPa yuqori bosimli gaz ballonlar olish uchun tavsiya etiladi.[19]

**Qisqa nitron tola asosida sinchlangan KPMLarning fizik-mexanik
va dinamik xossalari**

Ko`rsatgichlar	Sinchlangan epoksid polimer kompozitsiyasi				
	EDPK-1	EDPK-2	EDPK-3	EDPK-4	EDPK-
Zichlik, $r, \text{g/sm}^3$	1,24	1,25	1,25	1,25	1,25
Egilishdagi solishtirma mustahkamlik, si, MPa	200	240	245	280	275
Dinamik elastik modul, $Y_e \times 10^{-4} \text{MPa}$	3,8	4,0	4,2	4,1	4,0
Uzilishdagi mustahkamlik, sr,MPa	118	130	140	135	132
Tebranishning logarifmik dekrementi, d,%	4,8	5,6	5,8	5,4	5,2
Zarbaga qovushqoqlik,a, kJ/m^2	150	160	165	166	170

**Uzluksiz nitron tola asosida sinchlangan KPMLarning fizik-mexanik va
dinamik xossalari**


Ko`rsatgichlar	Sinchlangan epoksid polimer kompozitsiyasi				
	EDPK-1	EDPK-2	EDPK-3	EDPK-4	EDPK-
Zichlik, ρ , g/sm ³	1,3	1,31	1,31	1,31	1,31
Egilishdagi solishtirma mustahkamlik, σ , MPa	580	700	750	725	700
Dinamik elastik modul, $E \times 10^{-4}$ MPa	10,2	9,4	8,5	9,0	9,0
Uzilishdagi mustahkamlik, σ_r , MPa	450	470	490	480	470
Tebranishning logarifmik dekrementi, d , %	1050	1180	1100	1155	1150
Zarbaga qovushqoqlik, a , kDj/m ²	85	90	100	95	100

Shunday qilib, yaratilgan nitron tola bilan sinchlangan kompozitsion polimer materiallar yuqori fizik-mexanik va dinamik xossalarga ega ekanligi aniqlandi. Bunday kompozitsion materiallar yuqori bosimli gaz ballon materiallariga qo`yilgan talablarga to`liq javob beradi.

2.6. Avtomobillarda ishlatiladigan gaz ballon jihozlarning tahlili

Suyultirilgan gazlarni karbyuratorli, ijektorli barcha ichki yonuv dvigvtellariga ega boʻlgan avtomobillarda foydalanish mumkin.

Suyultirilgan gazda ishlaydigan avtomobilning gaz bilan taminlash tizimining sxematik koʻrinishi quyidagi 1.1-rasmda keltirilgan. Suyultirilgan neft gazi(propan-butan) gazning asosiy bosimi yoʻli orqali balondan keladi. Mulgʻtiklapanyordamida ballondan gazni sarflanadi va yana shu bilan birgalikda tashqaridan gazni toʻldirish qurilmasi yordamida toʻldirishni amalga oshiradi.



1.1-rasm. Yengil avtomobillarning suyultirilgan gaz bilan
taminlash tizimi

1.ballon, 2.mulgʻtiklapan, 3.gazning asosiy bosimli yoʻli, 4.tashqaridan toʻldirish qurilmasi, 5.gazli klapan, 6.bugʻlatgich reduktor, 7.dozalagich, 8.gaz bilan havoni aralashtirgich, 9.benzinli klapan, 10. yoqilgʻini oʻzgartirish kaliti.

Gaz asosiy magistral yo`li orqali suyuq faza holatida gazli klapan-filtriga tushadi, xar hil smolali chiqindilardan tozalaydi va avtomobil o`chirilganda berkitishni yoki benzinga ulash vazifasini bajaradi. Keyin esa tozalangan gaz trubaprovod orqali reduktor– bug`latkichga boradi, u yerda o`n olti atmosfera bosimidan birgacha tushadi. Shiddat bilan bug`lanadi, gaz reduktori sovitadi, shuning uchun ham reduktor dvigatelning sovitish sistemasiga ulangan. Shuning uchun uning tserkulyatsiyasi reduktorning tezda ishdan chiqishiga yo`l qo`ymaydi. Gaz reduktordan past bosim shlangi dozalagich orqali gaz aralashtirgich ga keladi, u havo filtri va drosel zaslonkasi orasiga joylashtirilgan.

Gazda yoki benzinda ishlashni boshqarib turish uchun surgich (pereklyuchatel) orqali bajariladi. U avtomobilning saloniga, ko`rsatkichlarning biror bir orasiga o`rnatiladi. Agarda“benzin” holatidan “gaz” holatiga o`tilsa elektromagnit gaz klapani ochiladi va elektromagnit benzin klapani yopiladi. Agarda teskarisini o`tiladigan bo`lsak gaz klapani bekilib benzin klapani ochiladi. Svetadiot orqali qanday yoqig`idan foydalanilayotganini bilib turish mumkin. Pereklyuchatel uning uchun yoqilg`i darajasiga ulangan bo`lishi ham mumkin(uning uchun multiklapaniyog`qilg`i darajasini ko`rsatkichini sensoriga bog`liq bo`lishi lozim).

Gaz ballon qurulmasining to`rtinchi avlodi injektorli avtomobillar shunisi bilan farq qiladiki, benzinklapani (benzinni tuxtatish) o`rniga emelyator forsunka o`rnatiladi. Siqilgan gazdan avtomobillarning taminlash tizimida keng foydalanilmoqda. 1.2-rasmda yuk avtomobilining gaz ballonli uskunalari va ularning joylanishi tasvirlangan. Har bir o`rnatilgan gaz ballonining foydali sig`imi 50 litr, eng katta bosimi  $200 \text{ kg/sm}^2$ . Bitta ballonda xosil bo`lgan gazning jamg`arilgan energiyasi 10 litr benzinning issiqlik berish qobiliyatiga teng. Bu ballonlar 200-250 km yo`l bosishni tahminlaydi. Bunda 7 yoki 8 ta ballon guruxga bo`lingan holda 4 tadan qilinib avtomobilga o`rnatilgan bo`lib, ular bir birlari bilan naychalar yordamida ketma-ket ulanadi. Ballondagi gazning bosimi  $200 \text{ kg/sm}^3$ . Har bir guruh ballonlarda berkitiluvchi ventillar gaz bilan havoni aralashtirgich va benzinli klapan bo`lib, ular taqsimlash

Calculus: $\frac{d}{dx} \ln(x) = \frac{1}{x}$ $\frac{d}{dx} \ln(x^2) = \frac{2}{x}$ $\frac{d}{dx} \ln(x^3) = \frac{3}{x}$

Qish mavsumida reduktor dvigatelning sovutish tizimidagi suyuqlik bilan qo'shimcha qizdiriladi. Reduktorning yuqori bosim bo'shlig'ida gazning bosimi 9-12 kg/sm² gacha pasayadi. Elektro magnitliklapan ishga tushishi bilan gaz past bosimli ikki bosqichli reduktorning kirish teshigiga kiradi va gazning bosimi atmosfera bosimigacha pasayadi. Reduktor mezonlovchi boyitgich tuzilmasi bilan tahminlangan bo'lib bu tuzilma yordamida belgilangan miqdordagi gaz naychadan o'tib, ikki bo'linmali karbyurator aralashtirgichga kiritiladi. Bu karbyuratorda 3 ta mustaqil ishlaydigan salt ishlash tizimi bor. Ularning bittasi gaz uchun va ikkinchisi esa benzin bilan ishlashga mo'ljallangan. Karbyurator aralashtirgichning gaz kiritish joyida tarelkasimon teskari klapan bo'lib, u tirsakli valning 1000-2000 ayl/min da berk bo'ladi va gazsimon yonilg'i dvigatelga kiradi. Drossel zaslonkasini ochilish holati kattalashganda klapan ochiladi va gaz halqasimon teshik orqali karbyurator-aralashtirgichga kirib, havo tozalagichdan kelayotgan havo bilan diffuzor sathida aralashadi. [10]

Gaz tizimining ishlashini past va yuqori bosimli manometrlar bilan nazorat qilib turiladi. Gaz ballonli avtomobilning benzinda ishlashini taminlash uchun, tizimda benzobak, dag'al tozalagich, elektromagnitli mayin tozalagich, benzanastos, karbyurator va benzin uzatuvchi naychalar o'rnatilgan.

Yuqorida avtomobillarda ishlatiladigan gaz ballon jihozlarini ko'rib o'tildi. Suyultirilgan gazlar uchun gaz ballonlar ishchi bosim 16 kg/sm² bo'lib, og'irligi 7-8 kgni tashkil qilsa, siqilgan gazlar uchun gaz ballonlarda ishchi bosim 200 kg/sm² og'irligi 50-90 kgni tashkil qiladi.

Avtomobillarda ishlatiladigan gaz ballonlarni mustahkamligi tahminlangan holda og'irligini kamaytirish dolzarb masaladir.

2.7. Avtomobillarda ishlatiladigan gaz ballon jihozlarini takomillashtirish istiqbollari

Hozirgi davrga kelib Respublikamiz balki butun dunyo bozorida neftning keskin narxi oshib borishi anchagina qiyinchilik tug'dirmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida avtosanoat, xususan, «GM-O'zbekiston» va uning negizida tashkil etilgan «GM-O'zbekiston» qo'shma korxonasining bugungi kuni va kelajak istiqboli salmoqli o'rin tutadi. «GM-O'zbekiston» avtomobillarini muqobil yonilg'ilar bilan taminlash yoki bir vaqtda har-hil yonilg'i bilan ishlay olishini amaliy xal etish vatanimizda ishlab chiqarilayotgan avtomobillardan unumli va tejamli foydalanish imkonini yaratish bilan bir qatorda, ularni dunyo bozorida mavqeini mustahkamlab raqobatbardoshligini oshiradi.

Hozirgi kunda Respublikamiz xududidagi «GM-O'zbekiston» avtomobillarini benzin– gaz ko'sh yonilg'iga o'tkazish jadallashib bormoqda.

Ammo gaz yonilg'iga o'tkazishda, gazballon anjomlarining xorijdan keltirilishi va ularning «GM-O'zbekiston» avtomobillari uchun uncha qulay emasligi, eng muhimi Respublikamizda zaxirasi ko'p va o'ta arzon bo'lgan siqilgan tabiiy– metan gaziga o'tkazishda ancha muammolar mavjud.

Jumladan, anjomlar horijdan keltirilgani bois narxi juda qimmat bo'lib 1,5 - 1,8 mln so'mga to'g'ri keladi. Uning ustiga ballonlar metal kompozitlardan bo'lib umumiy og'irligi 50-90 kg ni tashkil qilgan holda, gabarit o'lchamlari avtomobilga o'rnatishda, ayniqsa Damas avtomobillari uchun juda noqulaydir. CHet ellarda chiqarilayotgan metan gazi uchun metallopolimerkompozit gaz ballonlari «GM-O'zbekiston» avtomobillari uchun xam narxi qimmat, ham geometrik o'lchamlari bilan uncha mos kelmaydi. SHu munosabat bilan Respublikamizda mavjud ashyoviy resurslardan foydalangan holda 20-25 MPa (megopaskal) 200-250 atm. bosimga bardosh beradigan o'ta mustahkam va yengil kompozit materiallarni yaratish juda dolzarb masalalar jumlasiga kiradi.

Polimer asosidagi kompozit materiallar mustahkamligini oshirishning hozirgi kunda juda ko'p usullari mavjud, ammo unday texnologiyalarni yaratish va sotib olish juda qimmatga tushadi. SHuning uchun tahlab etilgan mustahkamlikni

tahminlay oladigan ashyoviy va energiya resurslarini xisobga olgan holda mustahkam material yaratish maqsadga muvofiqdir.

**Propan va metan gaz balonlari uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan
materiallarning mustahkamlik tavsiflari**

1.1-jadval

№	Конструкция материаллар tafsiflari	Uzilishga mustahkamligi,MPa	Solishtirma mustahkamlik,MPa
Asosiy bog'lovchilar			
1	Polietilen (PEVP) Rossiya	10-15	11-16
2	Polietilen Sho'rtangaz,O'zbekiston	15-18	16-20
3	Poliamidlar	20-45	18-42
4	Kopralaktam asosidagi polikapromidin	15-45	13-42
5	ED-16 asosidagi epoksid kompaudi	20-60	16-42
6	ED-20 asosidagi epoksid kompaudi	25-40	21-35
7	FAED-20 asosidagi furanepoksid kompaundi	10-20	8-18
Shisha va uglegrafid tolalar sinchlangan			
1	Poliamidlar KPM	300-400	220-300
2	Polikaproamidli KPM	350-400	220-300
3	Epoksidli KPM	350-450	300-400
Quyma po'lat			
1	St.40l.,St.45l	500-550	65-70


Olib borilayotgan tadqiqotlar natidjasida Respublikamizda chiqarilayotgan SHO`rtan gaz kimyo kompleksi polimer materiallaridan, Farg`ona furan birikmalarini ishlab chiqarish korxona maxsulotlarini yahni furan birikmalarini epoksid (ED-16, ED-20) polimerlari bilan modifikatsiyalab, mahalliy meniral to`ldiruvchilaridan keng foydalangan holda, xozirda foydalanilayotgan gaz ballonlarni mustahkamlash ko`zda tutilgan.[19]

1.1-jadvaldan ko`rinib turubdiki, anhanaviy ravishda mashinasozlikda keng qo`llanilayotgan polimer materiallarining mustahkamligi quyma po`latlarnikiga nisbatan 10-20 marta kam, ammo to`ldiruvchilar qo`shilgan, jumladan, bir tomonlama yo`nalishda, shisha yoki uglegrafit tolalari bilan sinchlangan kompozit polimer materiallarining mutahkamligi quyma po`latlarnikidan qolishmagan holda ancha yuqori solishtirma(hajm birligidagi) mustahkamlikka ega, yahni ancha yengil. Avtomobillarni suyultirilgan va siqilgan gaz hamda benzin yonig`llarida ishlashini taminlash maqsadida termoplas va reaktoplas polimer bog`lovchilarni mahsus tolalar bilan bo`ylama va ko`ndalang sinchlov usulida mustahkamlab, to`ldiruvchi sifatida dismembrator qurulmasida mexanik faollashtirilgan mahalliy minerallardan foydalangan holda yuqori mustahkamlikka ega bo`lgan kompozit materiallardan istalgan shakl va hajmda gaz ballon uchun kompozitsion polimer materiallar olish istiqbollari nazariy asoslandi. Avtomobillarni qo`sh yonilg`i bilan taminlash uni yanada qulay va samarali qilib nafaqat mamlakatimizda, balki jahon bozorida ham xaridorgirligini oshirishga olib keladi.


3.KONSTRUKTIV QISM

3.1 Mahalliy ashyolardan foydalanib sinchlangan kompozitsion polimer materiallardan yuqori bosimli gaz ballonlar olish texnologiyasi bo'yicha tavsiya ishlab chiqish.

Yuqori bosimga chidamli idishlarga qo'yiladigan talablarni qondirish imkonini aniqlash uchun namuna sifatida yuqori bosimga bardosh bera oladigan q bosim ostidagi idishni ko'rib chiqamiz (6-rasm,a). Devorda elementar dl uzunlikdagi tugallanmagan kichik elementar ko'ndalang va bo'ylama kesimlar ifodalangan (6-rasm, b) Bu kesimlarda o'q bo'ylab $\tilde{\sigma}_m$ va aylana bo'ylab sq kuchlanish ta'sir qiladi, qirqib olingan elementar tekis kuchlanish holatida joylashadi.



(a)



(b)

6-rasm. Yuqori bosimli gaz ballon va uning hisobiy chizmasi O'q bo'ylab yo'naltirilgan kuchlanishdan teng ta'sir etuvchi o'q kuchi yuzaga keladi:

$$N = q \cdot R^2 = \sigma_m \cdot dl \cdot R \quad (1)$$

bu yerda: R - gaz ballonning sferik qismi ichki radiusi; $D = 2R$ – gaz ballonning silindr qismi oʻrtacha diametri; d - gaz ballon devorining qalinligi. (1) tenglamadagi oʻq boʻylab taʼsir qiluvchi kuchlanish s_m quyidagiga teng:

$$s_m = qD/(4d) \quad (2)$$

Aylana boʻylab taʼsir etuvchi kuchlanish koʻndalang kuchlar taʼsirida yuzaga keladi.

$N_q = sqddl$ (3) qaysiki bu kuch, elementar yuzaga taʼsir etayotgan shartliq bosim va elementar dFR kuchiga tenglashishi zarur

$$dFR = qdl^2 \quad (4).$$

$$dN_q \text{ va } dFR$$

kuchlarini radius boʻyicha element oʻrtasiga yoʻnaltirib sistema(gaz ballon)ning muvozanat tenglamasini tuzamiz:

$$2dN_q \sin(dq/2) - dFR = 0$$

$$2sqddl \sin(dq/2) = qdl \quad (5)$$

$dl = Rdq \sin(dq/2) = dq/2$ ni hisobga olib quyidagini hosil qilamiz:

$$sq = qD/(2d) \quad (6)$$

(2) va (6) ifodalardan koʻrinadiki, yuqori bosimli gaz ballonining boʻylama kesimidagi kuchlanish koʻndalang kuchlanishdan 2 marta katta boʻladi. Yuqoridagi hisobiy tahlillar asosida (2) yoki (6) tenglamalardan yuqori bosimli gaz ballonning qalinligini aniqlaydigan boʻlsak, $d = qR/s$ (7) ifodani hosil qilamiz.


Demak, ixtiyoriy oʻzgarmasq bosimli gaz ballon materialining mustaxkamligi sga qarab ballonning geometrik oʻlchamlari d va R ni maqbullashtirish mumkin. Qisqa nitron tola bilan sinchlangan kompozitsion materiallar uchun gaz ballon devorining qalinligi 11,5-23,5 mm ni, uzluksiz nitron tola bilan sinchlangan kompozitsion materialar uchun gaz ballon devorining Epoksid bogʻlovchisi, mexanik faollashgan minerallar va nitron tola bilan sinchlangan kompozitsion polimer material olish texnologiyasini ishlab chiqishda tolalarni bir biri bilan kesishuvchi usuldan foydalanib sinchlandi. Sinchlangan kompozitsion polimer materiallardan yuqori bosimli gaz ballon olish texnologiyasi taklif etilmoqda.

Tavsiya etilayotgan texnologiya bo'yicha sinchlangan kompozitsion polimer materiallardan yuqori bosimli gaz ballon olish texnologik jarayoni quyidagicha:

- epoksid qorishmasini tayyorlash(epoksid smolasini qizdirish, atseton bilan ikkilamchi suyultirish, plastifikator va qotirgich);
- polietilenteraftalatdan tayyorlangan gaz ballon konstruktsiyasiga nitron tolani qorishmaga shimdirib o'rash;
- 24 soat davomida sinchlangan kompozitsion polimer materiallardan olingan gaz ballonni sovuqlayin 5-6 MPa bosim ostida presslash;
- sinchlangan kompozitsion polimer materiallardan olingan gaz ballonini 120°S haroratda 120 minut davomida pechda termik ishlov berish. kalinligi 3,35-16,77 mm ni tashkil etdi.

